



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

INGLIZ TILI ZOONIMIYA TIZIMIDA TIMSOH NOMLARINING STRUKTURAVIY TAHLILI

Xidirova Maxfuza Amirkulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi 23 ta timsogh nomining strukturaviy xususiyatlari tadqiq etilgan. Zoonimlar tarkibiy qismlar (komponentlar) soni bo'yicha tahlil qilinib, bir komponentli nomlardan uch komponentli murakkab birikmalargacha bo'lgan modellar yoritilgan. Tadqiqot natijasida ingliz tilida timsoghlar nomlanishida ikki komponentli (bilexemic) nominatsiyalarning mutloq ustunligi aniqlangan.

Kalit so'zlar. Zoonim, timsogh, struktur tahlil, komponent, nominatsiya, terminologiya, leksika, herpetologiya.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ КРОКОДИЛОВ В СИСТЕМЕ АНГЛИЙСКОЙ ZOONИМИИ

Хидирова Махфуза Амиркуловна

Денауский институт предпринимательства и педагогики, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуются структурные особенности 23 названий крокодилов в английском языке. Зоонимы анализируются по количеству компонентов, освещая модели от однокомпонентных названий до сложных трехкомпонентных сочетаний. В результате исследования выявлено абсолютное преобладание двухкомпонентных номинаций в системе наименований крокодилов в английском языке.

Ключевые слова Зооним, крокодил, структурный анализ, компонент, номинация, терминология, лексика, герпетология.

STRUCTURAL ANALYSIS OF CROCODILIAN NAMES IN THE ENGLISH ZOONYMIC SYSTEM

Khidirova Makhfuza Amirkulovna

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Senior Lecturer

Abstract

This article examines the structural characteristics of 23 crocodilian names in the English language. Zoonyms are analyzed based on the number of components, covering models from single-word names to complex three-component phrases. The study reveals a significant predominance of bilexemic (two-component) nominations in the naming of crocodilians in English.

Keywords: Zoonym, crocodilian, structural analysis, component, nomination, terminology, lexis, herpetology.

Tilshunoslikning hayvon nomlarini o'rganuvchi sohasi — **zoonimiya** har qanday tilning leksik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Zoonimlar inson tafakkuri va tabiat o'rtasidagi murakkab aloqalarni aks ettiruvchi lisoniy birliklardir. Ingliz tilida fauna vakillarining nomlanishi shunchaki biologik ehtiyoj emas, balki so'zlovchilarning atrof-muhitni qanday idrok etishi va turli

biologik turlarni qanday tasniflashi bilan bog‘liq madaniy-lisoniy hodisadir. Zoonimiyaning keng qamrovli doirasida sudralib yuruvchilar, xususan, timsosimonlar (**Crocodylia**) turkumiga oid nomlar o‘zining taksonomik aniqligi va lisoniy barqarorligi bilan alohida tadqiqot obyekti bo‘la oladi.

Strukturaviy nuqtayi nazardan hayvon nomlari nominativ birliklar bo‘lib, ular oddiy bir komponentli so‘zlardan tortib murakkab ko‘p komponentli birikmalargacha bo‘lgan shakllarda namoyon bo‘ladi. Ushbu zoonimlarning strukturaviy murakkabligi ko‘pincha ma‘lum bir turni boshqasidan ajratish uchun zarur bo‘lgan identifikatsiya darajasini ko‘rsatadi. Masalan, turni yashash joyi bo‘yicha nomlash (*Nile Crocodile*) yoki o‘ziga xos morfologik belgisi asosida atash (*Broad-snouted Caiman*) ingliz tilining analitik imkoniyatlarini namoyish etadi.

Zamonaviy lingvistikada zoonimlarning strukturaviy tahlili so‘z yasalishi va so‘z birikmalarining eng mahsuldor modellarini aniqlash imkonini beradi. Ingliz tili analitik til sifatida “**aniqlovchi + aniqlanmish**” (*modifier + head*) modelidan keng foydalanadi. Bu jarayonda rang, yashash muhiti, o‘lcham va kelib chiqish kabi tavsifiy belgilar bir necha qatlamli lisoniy yorliqlarni hosil qiladi. Timsos nomlarining (*crocodilian names*) strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish ushbu terminologik tizimning qanchalik iyerarxik shakllanganligini va ingliz zoonimiyasidagi leksik mahsuldorlikni yoritishga xizmat qiladi.

Metodlar va materiallar

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi timsos nomlarining strukturaviy tasnifini tizimli lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganishga qaratilgan. Ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchligini ta‘minlash uchun tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan holda bir necha bosqichda amalga oshirildi.

Tadqiqotning asosiy materiali **Crocodylia** turkumiga mansub turli oilalarni (haqiqiy timsoslar, alligatorlar, kaymanlar va gaviallar) ifodalovchi **23 ta ingliz tili zoonimidan** iborat. Nomlar ilmiy adabiyotlarda va ixtisoslashgan ingliz tili lug‘atlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan shakllari asosida tanlab olindi. Ma‘lumotlarni yig‘ishda quyidagi manbalarga tayanildi:

- a) **The Reptile Database** [1] — dunyo miqyosidagi sudralib yuruvchilar turlarining standartlashtirilgan umumiy nomlarini tasdiqlash uchun foydalanildi.
- b) **Grzimek’s Animal Life Encyclopedia** [2] — xususan, 7-jild orqali hayvonlarning biologik tavsifi va ularga mos keluvchi inglizcha nomlar o‘rganildi.
- c) **The Oxford Dictionary of Natural History** [3] — tanlangan zoonimlarning leksik maqomi va yozilish normalarini tekshirish uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida faqat turlarning inglizcha umumiy nomlari (masalan, *American Alligator*) tahlil qilindi, ularning lotincha binar nomenklaturasi (masalan, *Alligator mississippiensis*) esa tahlilga tortilmadi. Chunki tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad aynan ingliz tilining ichki sintaktik strukturasi o‘rganishdir [4].

Tadqiqotning negizini struktur-semantik tahlil tashkil etadi. Strukturaviy tilshunoslik tamoyillariga ko‘ra, zoonimlar ma‘nosi ularni tashkil etuvchi qismlarning birikuviga bog‘liq bo‘lgan nominativ birliklar sifatida qaraladi [5]. Quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- i. **Deskriptiv (tavsifiy) metod** — har bir zoonimning morfologik va sintaktik xususiyatlarini tavsiflash uchun ishlatildi.
- ii. **Komponent tahlil** — har bir nom alohida leksik elementlarga (so‘zlarga) ajratildi. Masalan, *Cuvier’s Dwarf Caiman* nomida uchta mustaqil komponent aniqlandi.
- iii. Nomlar so‘zlar soniga ko‘ra uchta guruhga ajratildi:

- monoleksemik (bir komponentli);
 - bileksemik (ikki komponentli);
 - trileksemik (uch komponentli).
- iv. **23 ta zoonimdan iborat korpusda** har bir strukturaviy modelning ulushini foiz hisobida aniqlash uchun oddiy statistik hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Ushbu metodlarni sintez qilish orqali tadqiqot ingliz tilining tavsifiy belgilar qatlamini

yaratishda o‘zining sintaktik moslanuvchanligidan qanday foydalanishini ko‘rsatib beradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot doirasida olingan natijalar ingliz tilida timsoh zoonimlarining shakllanishida qat’iy strukturaviy va semantik qonuniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu zoonimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki kognitiv tasniflash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ya’ni, til so‘zlovchilari hayvonlarni nomlash jarayonida ularning biologik, ekologik va morfologik xususiyatlarini muayyan semantik belgilar orqali konseptuallashtiradi.

1. Bileksemik modellarning dominantligi va funksionalligi

Tahlil qilingan timsoh nomlarining **69,6 foizi** ikki komponentli modelga to‘g‘ri kelishi ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlashda aynan ushbu model bazaviy standart sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. Bileksemik modellar **lingvistik iqtisod** (*linguistic economy*) tamoyiliga mos keladi, chunki ular minimal birliklar yordamida maksimal differensial ma’no hosil qilish imkonini beradi.

Mazkur guruhda **“Sifat + Ot”** (*Adjective + Noun*) modeli yetakchi hisoblanadi. Ushbu model asosan ikki turdagi differensial belgi asosida shakllanadi:

a) Geografik lokativ markerlar

Bu turdagi nomlarda birinchi komponent hayvonning tarqalish arealini bildiradi va taksonomik aniqlikni ta’minlaydi. Geografik indikatorlar biologik klassifikatsiyada muhim identifikatsion funktsiya bajaradi. Masalan: *American Crocodile*, *Philippine Crocodile*, *Siamese Crocodile* va boshqalar. Bu holatda lokativ komponent zoonimning areal asosidagi differensial semantikasini belgilaydi. Shuningdek, geografik komponent hayvonning ekologik moslashuvini ham bilvosita aks ettiradi.

b) Morfologik markerlar

Bu guruhda hayvonning tashqi ko‘rinishi asosiy nominativ motivatsiya sifatida xizmat qiladi. Morfologik tavsiflar hayvonning vizual identifikatsiyasini osonlashtiradi va semantik jihatdan eng intuitiv belgilar hisoblanadi. *Dwarf Crocodile*, *Black Caiman*, *Spectacled Caiman* kabilar bunga misol bo‘ladi. Mazkur nomlarda:

- **Dwarf** — o‘lchamni,
- **Black** — rangni,
- **Spectacled** — tana tuzilishidagi o‘ziga xos detalni

asosiy semantik differensial belgi sifatida namoyon etadi. Bu esa ingliz tilida vizual belgilarning nomlash jarayonida ustuvorligini ko‘rsatadi.

Timsoh zoonimlarining struktur-semantik xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalar zamonaviy tilshunoslik va biologik nomenklatura nazariyalari bilan mos keladi. Zoonimlarning shakllanishi nafaqat lingvistik jarayon, balki biologik klassifikatsiya, kognitiv idrok va nominativ motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, timsoh zoonimlarining asosiy qismi ikki komponentli model asosida shakllangan. Bu hodisa lingvistik iqtisod tamoyili bilan izohlanadi. Tilshunos olim G.K. Zipf o‘zining mashhur **“least effort principle”** (eng kam kuch sarflash tamoyili) nazariyasida til birliklari minimal vosita orqali maksimal ma’no yetkazishga intilishini ta’kidlaydi. Shu sababli ikki komponentli nomlash modeli biologik obyektlarni identifikatsiya qilishda optimal shakl hisoblanadi [11].

Shuningdek, terminologiya sohasidagi tadqiqotlar ham ikki komponentli nomlarning universal model sifatida qo‘llanishini tasdiqlaydi. John Lyons ta’kidlaganidek, murakkab obyektlarni nomlash jarayonida aniqlovchi komponent asosiy differensial semantik belgini ifodalaydi [8].

Zoonimlarning birinchi komponenti (aniqlovchisi) semantik jihatdan bir necha kichik guruhlariga bo‘linadi. Ushbu komponentlar semantik klassifikator vazifasini bajaradi va hayvonni ma’lum kategoriyaga kiritadi.

a) Gidrologik va ekologik markerlar

Timsohlar yarim suv hayvonlari bo‘lganligi sababli, ularning yashash muhiti nomlash jarayonida muhim kognitiv mezon sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida suv turi asosiy ekologik identifikator sifatida qo‘llanadi. Masalan:

- *Saltwater Crocodile*
- *Freshwater Crocodile*

Bu yerda **Saltwater** — tuzli suv, **Freshwater** — chuchuk suv ma’nolarini bildirib, ekologik kontrast asosida hosil bo‘lgan komplementar semantik oppozitsiyani ifodalaydi. Ushbu oppozitsiya tilning biologik reallikka moslashganligini ko‘rsatadi.

b) Eponimik nominatsiyalar

Ba’zi timsoh nomlari mashhur olimlar yoki tadqiqotchilar nomi bilan bog‘langan. Bu hodisa ilmiy nomenklaturaning tarixiy va madaniy kontekstini aks ettiradi. *Morelet's Crocodile*, *Cuvier's Dwarf Caiman* kabi nomlar bunga misoldir. Bu yerda shaxs ismi zoonim tarkibida **memorativ** (xotira) funksiyasini bajaradi. Ya’ni, til orqali ilmiy kashfiyot muallifining nomi saqlanib qoladi.

3. Trileksemik modellar

Uch komponentli nomlar ingliz tilida strukturaviy murakkablashuvning yuqori bosqichini ifodalaydi. Ushbu modellar taksonomik aniqlikni oshirish zarurati natijasida yuzaga keladi. Masalan: *Slender-snouted Crocodile*, *New Guinea Crocodile*. Bu jarayon asosan ikki holatda kuzatiladi:

a) Murakkab toponimlarning qo‘shilishi

Ikki so‘zli joy nomlari umumiy tur nomi bilan birikkanda uch komponentli zoonim hosil bo‘ladi. Masalan: *New Guinea + Crocodile*. Bu yerda toponimning murakkabligi zoonim strukturasi bevosita ta’sir qiladi.

b) Morfologik tavsifning chuqurlashuvi

Ba’zi hollarda hayvonning anatomik xususiyatlari yanada aniqroq tasvirlanadi. *Slender-snouted* nomida buni kuzatish mumkin. Bu komponent hayvonning tumshug‘i shakliga oid aniq morfologik tavsifni beradi. Natijada nomning identifikatsion kuchi ortadi. Bu hodisa terminologik aniqlikning lingvistik ekspansiyasi sifatida talqin qilinadi.

Timsoh zoonimlarida geografik lokativ va morfologik belgilar asosiy nominativ motivatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hodisa onomasiologiya va kognitiv semantika nazariyalarida keng o‘rganilgan. Nemis tilshunosi W. von Humboldt tilning asosiy vazifalaridan biri real dunyoni konseptualashtirish ekanligini ta’kidlaydi [6]. Hayvon nomlarida geografik va morfologik belgilarning qo‘llanishi aynan shu jarayonning lingvistik ifodasidir.

Uch komponentli zoonimlarning paydo bo‘lishi terminologik tizimning rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu hodisa **terminologik ekspansiya** yoki **nominal murakkablashuv** deb ataladi. Terminologiya nazariyasi asoschisi Eugen Wüster ilmiy terminlar yangi obyektlarni aniqlik bilan ifodalash zarurati tufayli murakkablashishini ta’kidlaydi [12]. Bu nazariya timsoh zoonimlarida uch komponentli nomlarning paydo bo‘lishini ilmiy jihatdan izohlaydi.

Kaltakesak va timsoh zoonimlari o‘rtasidagi strukturaviy farqlar biologik xilma-xillik darajasi bilan izohlanadi. Biolog olim Ernst Mayr biologik turlar soni ortishi bilan klassifikatsiya tizimi murakkablashishini ko‘rsatgan. Bu jarayon til tizimida ham aks etadi [9].

Ingliz tilidagi **23 ta timsoh nomi** ustida o‘tkazilgan strukturaviy tahlil ushbu zoonimlarning lisoniy modellari cheklangan va tizimli ekanligini ko‘rsatdi. Ma’lumotlar komponentlar soniga ko‘ra tasniflanganda, ikki komponentli (*bilexemic*) nomlarning mutlaq ustunligi aniqlandi.

Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Komponentlar soni	Miqdori (soni)	Foiz hisobida	Misollar
1 komponentli	1	4,3%	<i>Gharial</i>
2 komponentli	16	69,6%	<i>Nile Crocodile, Black Caiman</i>

3 komponentli	6	26,1%	<i>Saltwater Crocodile, Smooth-fronted Caiman</i>
Jami	23	100%	

Natijalar ikki komponentli modelning ustunligini (**69,6%**) ko'rsatadi. Timsohlarni nomlashda ingliz tilida eng mahsuldor model ikki so'zli birikmalardir. Ushbu model asosan **“geografik joy nomi/sifat + umumiy tur nomi”** sxemasi asosida shakllangan. Masalan, *Chinese Alligator* (Xitoy alligatori) yoki *Dwarf Crocodile* (mitti timsoh). Bu model so'zlovchi uchun hayvonni tez va aniq identifikatsiya qilish imkonini beradi. Tadqiqotda faqat bitta monoleksemik zoonim — *Gharial* aniqlandi. Bu monoleksemik nomlarning kamyobligini ko'rsatadi (4,3%). Ushbu so'z o'zga tildan (hindcha *ghara*) o'zlashgan bo'lib, ingliz tili zoonimiyasida timsohlar uchun yakka so'zli nominatsiya istisno holat ekanligini tasdiqlaydi. Trileksemik nomlar (**26,1%**) asosan yashash muhitini yanada aniqroq ko'rsatish (*Saltwater Crocodile*) yoki turni kashf etgan olimning familiyasini qo'shish (*Cuvier's Dwarf Caiman*) hisobiga yuzaga kelgan. Kaltakesak nomlaridan farqli o'laroq, timsoh nomlari orasida to'rt yoki besh komponentli murakkab birikmalar uchramaydi. Bu timsohlar turkumining biologik jihatdan kam sonli ekanligi va ularning nomenklaturasi lisoniy jihatdan barqarorlashganini anglatadi.

Ingliz tilidagi 23 ta timsoh zoonimining strukturaviy tadqiqoti quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. **Timsoh nomlari strukturaviy jihatdan o'ta ixchamdir.** Ingliz tili zoonimiyasida timsohlar uchun maksimal uchta komponentdan foydalanish yetarli hisoblanadi. Bu holat tilning muloqot jarayonida ortiqcha lisoniy birliklardan qochish (*economy of language*) tendensiyasiga mos keladi.
2. **Ikki so'zdan iborat zoonimlar** (*Nile Crocodile, Black Caiman* va boshqalar) tizimning o'zagini tashkil etadi. Bu modellar kognitiv jihatdan **“umumiy tushuncha + farqlovchi belgi”** tamoyiliga qurilgan bo'lib, terminologik aniqlikni ta'minlaydi.
3. Timsohlar nominatsiyasida **geografik markerlar** (*Nile, American, Philippine*) va **morfologik xususiyatlar** (*Broad-snouted, Slender-snouted, Dwarf*) asosiy differensial belgi bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, ingliz tili so'zlovchisi uchun timsohni boshqasidan ajratishda uning **qayerda yashashi** va **tumshug'ining shakli** eng muhim xususiyat hisoblanadi.
4. Timsoh nomlarida murakkab 4–5 komponentli birikmalarning yo'qligi ushbu zoonimik tizimning kaltakesaklar yoki qushlar nomlanishiga qaraganda ancha barqaror va kamroq variativ ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, timsoh zoonimlarining strukturaviy tuzilishi ingliz tilining analitik tabiatini va uning biologik klassifikatsiyaga moslashish imkoniyatlarini yorqin aks ettiradi. Kelgusida ushbu zoonimlarni o'zbek va rus tillari bilan qiyosiy-tipologik planda o'rganish lingvomadaniyatshunoslik fani uchun istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allaby M. Tabiat tarixi lug'ati. — Oksford: Oxford University Press, 2020.
2. Bloomfield L. Til. — Nyu-York: Henry Holt and Company, 1933.
3. Crystal D. Ingliz tilining Kembrij ensiklopediyasi. Kembrij: Cambridge University Press, 2018.
4. Uetz P., Freed P., Hošek J. Reptiliyalar ma'lumotlar bazasi [Elektron manba]. — 2023.
5. Schlager N. (tahr.) Grzimekning hayvonot olami ensiklopediyasi. 7-jild: Sudralib yuruvchilar. — Farmington Hills: Gale Group, 2003.
6. Humboldt W. Til haqida: inson tillari tuzilmasining xilma-xilligi va uning tafakkur rivojiga ta'siri. — 1836.
7. Lyons J. Nazariy tilshunoslikka kirish. — Kembrij: Cambridge University Press, 1968.
8. Lyons J. Semantika. — Kembrij: Cambridge University Press, 1977.
9. Mayr E. Hayvon turlari va evolyutsiya. — Kembrij: Harvard University Press, 1963.
10. Saeed J. I. Semantika. — Wiley-Blackwell, 2016.
11. Zipf G. K. Inson xulq-atvori va eng kam harakat prinsipi. — Kembrij: Addison-Wesley, 1949.
12. Wüster E. Terminologiyaning umumiy nazariyasi va terminologik leksikografiyaga kirish. —